

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFASIGA KO‘MAKLASHUVCHI
“VATANPARVAR” TASHKILOTI MARKAZIY KENGASHI
RESPUBLIKA TEXNIK VA AMALIY SPORT TURLARI MARKAZI**



**Duatlon bo‘yicha O‘zbekiston kubogi
– N I Z O M I –**

Toshkent – 2025-yil

“TASDIQLAYMAN”

“Vatanparvar” tashkiloti
Markaziy kengashi raisi o‘rinbosari –
RT va ASTM bosh direktori
A. Kurbaniyazov

2025-yil “ ”

Duatlon bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasi

N I Z O M I

1. Maqsad va vazifalar.

Yoshlarni sportning texnik va amaliy turlari bilan shug‘ullanishlariga keng jalb qilish, ushbu sport turini ommaviylashtirish va targ‘ib qilish.

Sport sohasiga qiziquvchi tashkilot va idoralarni sportning texnik va amaliy turlari bo‘yicha sport klublari va seksiyalari faoliyatini rivojlantirishga jalb etish.

Xalqaro sport musobaqalarda ishtirok etish uchun O‘zbekiston terma jamoalarini shakllantirish maqsadida duatlon bo‘yicha kuchli sportchilarni aniqlash va sport mahoratini oshirish.

2. Rahbarlik, tashkiliy ishlar va musobaqa hakamligi.

“Vatanparvar” tashkiloti Markaziy kengashining tashkiliy-uslubiy ko‘rsatmalari asosida, musobaqani tashkil etish bo‘yicha umumiy rahbarlik ishlari Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi zimmasiga yuklatiladi.

Duatlon bo‘yicha yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston kubogi sport musobaqalarini o‘tkazish joylarini o‘z vaqtida, talab darajasida tayyorlash, uni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish va musobaqalarni yuqori tashkiliy saviyada o‘tkazish, “Vatanparvar” tashkiloti Qashqadaryo viloyat kengashi zimmasiga yuklatiladi.

Duatlon bo‘yicha O‘zbekiston kubogi musobaqasida hakamlilik qilish, o‘rnatilgan tartibda tayinlangan hakamlar hay‘ati tomonidan amalga oshiriladi.

3. Sport musobaqasida hakamlilik.

Musobaqaning bosh hakamlar hay‘ati	Kishilar soni	Ish kunlari soni
Bosh sport hakami	1 kishi	4 kun
Bosh kotib	1 kishi	4 kun
Bosh kotib o‘rinbosari	1 kishi	3 kun
Bosh sport hakami o‘rinbosari	1 kishi	3 kun
Katta sport hakami	1 kishi	3 kun
Musobaqa direktori	1 kishi	3 kun
Texnik delegat	1 kishi	3 kun

- sport hakamlari hay‘atining qolgan qismi, musobaqa bosh hakamining buyurtmasiga binoan musobaqani o‘tkazish uchun bevosita mas‘ul bo‘lgan tashkilotchilar tomonidan tayinlanadi.

4. Sport musobaqasining muddati va o'tkaziladigan joyi.

Sport musobaqa 2025-yilning 17-18-oktabr kunlari, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida o'tkaziladi

5. Sport musobaqasini o'tkazish shartlari.

Sport musobaqa triatlon bo'yicha 2018-yil nashridagi musobaqalar qoidasiga, World triatlon-2025 musobaqalari qoidalariga asosan va ushbu Nizomga muvofiq o'tkaziladi.

Vaqtni saqlash chip-Timing avtomatik vaqtni saqlash tizimi orqali amalga oshiriladi va musobaqaning bosh hakami tomonidan qo'lda vaqtni takrorlash bilan takrorlanadi.

6. Sport musobaqasi dasturi.

Birinchi kun

- soat 14.00 dan 17.00 gacha sport musobaqa ishtirokchilarini ro'yxatga olish;
- soat 18.00 da sport jamoalar vakillari bilan yig'ilish.
- soat 18.30 da sport hakamlari hay'ati bilan yig'ilish.

Ikkinchi kun

- soat 7.00 dan 7.30 gacha musobaqaning ochilishi;
- soat 7.30 dan 8.00 gacha trassani ko'rsatish;
- soat 8.30 da duatlon bo'yicha musobaqaning barcha toifadagi ishtirokchilarining starti.
- soat 12.45 da finish.
- natijalarni tasdiqlash, musobaqa g'oliblarini taqdirlash va ishtirokchilarning tarqalishi (uylariga qaytishi).

Duatlon bo'yicha musobaqa (sprint)

Toifa	Yugurish	Velo	Yugurish
19 yosh va undan katta erkaklar	5 000 metr	20 000 metr	2500 metr
19 yosh va undan katta ayollar	5 000 metr	20 000 metr	2500 metr
16-18 yoshli o'smirlar (2007-2009 y.t.).	5 000 metr	20 000 metr	2500 metr
16-18 yoshli o'smir qizlar (2007-2009 y.t.).	5 000 metr	20 000 metr	2500 metr
12-15 yoshli o'g'il bolalar (2010-2013 y.t.)	2500 metr	10 000 metr	1000 metr
12-15 yoshli qiz bolalar (2010-2013 y.t.)	2500 metr	10 000 metr	1000 metr

Eslatma:

- Sport musobaqalari kun tartibiga, sharoitdan kelib chiqqan xolda tegishli o'zgarishlar kiritilishi mumkin bo'lib, bu boradagi ma'lumotlar ishtirokchilar yig'ilishida e'lon qilinadi.
- Sport musobaqasining dasturi ob-havo sharoiti tufayli o'zgarishi mumkin.
- Sportchining yoshi joriy yilning 31 dekabriga aniqlanadi.

7. Sport musobaqasi ishtirokchilari va jamoa tarkiblari.

Sport musobaqada ishtirok etishga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar klub jamoalariga hamda shaxsiy birinchilik uchun boshqa sportchilarga ham ruxsat beriladi.

19 yosh va undan katta erkaklar	- 1 kishi;
19 yosh va undan katta ayollar	- 1 kishi;
16-18 yoshli o'smirlar (2007-2009 y.t.)	- 1 kishi;
16-18 yoshli o'smir qizlar (2007-2009 y.t.)	- 1 kishi;
12-15 yoshli o'g'il bolalar (2010-2013 y.t.)	- 1 kishi;
12-15 yoshli qiz bolalar (2010-2013 y.t.)	- 1 kishi;
Trener – vakil	- 1 kishi.
Jami:	- 7 kishi.

Sportchilarga qat'iy o'z yosh toifalarida ishtirok etishga ruxsat beriladi

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat klub jamoalari nomidan ishtirok etishga, faqat ushbu hududda ro'yxatdan o'tgan sportchilargagina ruxsat beriladi.

O'zbekiston Kubogining Respublika musobaqalarida ishtirok etuvchi har bir sportchi, shu kalendar yili davomida faqatgina bitta klub jamoasi safida ishtirok etishi shart (tuman va viloyat kuboklari ham shular jumlasidan).

8. Natijalarni aniqlash.

Duatlon bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasida shaxsiy birinchilik natijalari, har bir yosh toifasida sportchilar ko'rsatgan eng yaxshi natija bilan belgilanadi.

Musobaqada umumjamoa natijalari, duatlon sporti musobaqalari qoidalariga bilan tasdiqlangan jadvalga (ilova-1) muvofiq, terma jamoalar sportchilariga berilgan eng ko'p ballar miqdori bo'yicha aniqlanadi.

Eslatma: Duatlon bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasining sportchilarini (sprint) toifalarda trassada bo'lishlarini nazorat vaqti:

- Erkaklar 1 soat 30 daqiqa 00 soniya;

- Ayollar 1 soat 40 daqiqa 00 soniya.

Ushbu vaqtdan so'ng trassa (yo'l) yopiladi va vaqt chegarasiga mos kelmaydigan sportchilar masofadan olib tashlanadi.

Masofadan tushgan va vaqt chegarasiga to'g'ri kelmagan sportchilarga ball berilmaydi.

Hakamlarning qarorlarini rad etishda "World Triathlon" (12,5-bandga rioya qilgan holda, bosh hakam, texnik delegat va sportchi vakili tarkibidagi bosh hakamlar hay'ati va apellatsiya juri bilan birgalikda) qoidalariga muvofiq protest taqdim etiladi. Aks holda,

hakam bilan nizolarda jamoani sportga xos bo'lmagan xatti-harakatlari uchun to'liq tarkibda diskvalifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

9. Sport musobaqasi g'oliblarini taqdirlash.

O'zbekiston kubogi musobaqasining har bir toifasida 1-2-3 o'rinlarni egallagan sportchilar tegishli darajadagi diplomlar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

O'zbekiston kubogi musobaqasining 1- 2- va 3-o'rinlarni egallagan sport klublari jamoalari tegishli darajadagi diplomlar va kuboklar bilan taqdirlanadilar.

10. Sport musobaqasi ishtirokchilarining ta'minlanishi.

Ushbu Nizomning 7-punktida belgilangan, mandat hay'atidan o'tgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar sport klubi jamoalari tarkibidagi ishtirokchilar hamda hakamlar hay'ati a'zolari, musobaqa tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan, byudjet mablag'lari hisobidan ovqatlanish, yotoqxona va tibbiy xizmat bilan ta'minlanadilar.

Shaxsiy birinchilikda ishtirok etuvchi sportchilar ishtiroklari bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar musobaqaga yuboruvchi tashkilotlar hisobidan ta'minlanadi. Faqatgina, oldindan kelishi rejalashtirilgan viloyat terma jamoalari to'liq tarkibda musobaqaga kelmay qolgan xollardagina, tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida ajratilgan byudjet mablag'lari, mandat komissiyasining qaroriga binoan musobaqada shaxsiy birinchilik uchun ishtirok etuvchi sportchilarning ovqatlanish, yotoqxona xarajatlari yo'naltirilishiga ruxsat etiladi.

11. Talabnomalarni taqdim etish va ro'yxatdan o'tish tartibi.

Sportchilarni ro'yxatdan o'tkazishda (mandat komissiyasiga), hakamlar hay'atiga duatlon bo'yicha sport musobaqalarining amaldagi qoidalari asosida jamoa vakili yoki alohida sportchi tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- har bir sport klubi jamoasi uchun tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan shaxsiy talabnoma (ilova - 2);
- ishtirokchining tibbiy ko'rikdan o'tganligini tasdiqlovchi tibbiyot ruxsatnomasi (86-shakl);
- fuqaroning shaxsini tasdiqlovi hujjati (pasporti, ID kartasi yoki tug'ilganlik haqida guvohnoma);
- sug'urta polisi;
- kvalifikatsion sinov daftarchasi yoki sport unvonini, toifasini tasdiqlovchi hujjat (sport pasporti);
- 16 yoshdan kichik sportchilarga, ota-onasi (otaliqqa olganlar) tomonidan yozilgan farzandlarining ushbu musobaqada ishtirok etishlari to'g'risidagi rozilik xati
- barcha toifadagi sportchilar tomonidan, duatlon bo'yicha sport musobaqalarining amaldagi qoidalari muvofiq kafolat xati taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyuruvchi ishtirokchilar, musobaqa boshlanishidan **15 kun** oldin, Respublika texnik va

amaliy sport turlari markaziga talabnomalarni e-mail: rcts@mail.ru orqali taqdim etishlari shart.

Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi manzili: Toshkent shahri, Yunusobod 17-mavze, "Sanoat dahasi", telefonlar: 71 223-73-02; 78 150 31 62, faks: 71 223-67-12.

Dastlabki talabnomalar taqdim etilmagan xollarda, tashkilotchilar ishtirokchilarni ovqatlanish bilan ta'minlamaslik huquqiga ega bo'ladi.


12. Qo'shimcha ma'lumotlar.

Sport musobaqaning amaldagi qoidalari bilan belgilangan intizomiy talablarni buzgan yoki sportchi etikasiga amal qilmagan musobaqa ishtirokchilari (sportchilar, mexaniklar, jamoa vakillari va hakamlar) belgilangan tartibda musobaqadan chetlashtirilib, jazolanadilar. Bunda yo'l qo'yilgan xatolik to'g'risidagi, sportchining o'zini tutish talablari bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar, belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi uchun intizomiy komissiyaga yuboriladi.


O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi hamda Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi rahbariyati, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantiruvchi tashkilotlar rahbarlarini, o'z sportchilari va sport delegatsiyalarini barcha sport tadbirlariga yagona sport formasida jo'natib, sportchilarning intizomiga to'liq javob beradigan va tashkilotchi tomonidan o'tkazilayotgan barcha rasmiy tadbirlarda ishtirok etadigan mas'ul vakolatli shaxslarni jamoalar vakillari etib tayinlashlari shartligi to'g'risida ma'lum qiladi.

**"Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi
va Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi
Sizga muvaffaqiyatli startlarni tilaydi !**

**RT va ASTM bosh direktorining
sport ishlari bo'yicha o'rinbosari**

**M. Xakimzanov**

**Suv-texnik sport turlari
bo'yicha trener**

**V. Rastrigin**

ILOVA-1
UMUMJAMOA NATIJALARI
HISOBLASH JADVALI

1-o'rin-100	16-o'rin 62
2-o'rin 96	17-o'rin-60
3-o'rin-92	18-o'rin 58
4-o'rin 88	19-o'rin 56
5-o'rin 84	20-o'rin 54
6-o'rin 82	21-o'rin 52
7-o'rin-80	22-o'rin 50
8-o'rin-78	23 - o'rin 48
9-o'rin-76	24-o'rin 46
10-o'rin 74	25 - o'rin 44
11-o'rin-72	26-o'rin-42
12-o'rin-70	27 - o'rin 40
13-o'rin-68	28-o'rin-38
14-o'rin-66	29-o'rin-36
15-o'rin 64	30-o'rin 34... ..

“TASDIQLAYMAN”
“Vatanparvar” tashkiloti

(Tashkilot nomi) raisi

“ ” 2025-yil
(Rahbarning F.I.)

Qarshi shaxrida o‘tkaziladigan “Duatlon” sport turi bo‘yicha
O‘zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok etadigan
_____terma jamoasining
TALABNOMASI

«_» _____ 2025 (musobaqasi sana) **Qarshi sh. (musobaqasi o‘tkazilgan joyi)**

№	F. I. O.	Sport razryadi	Tug‘ilgan yili	Ishtirokchilar toifasi	sug‘urta polisini raqami	Tibbiy ma’lumot	
						Shifokor xulosasi	Imzo va muxri
1.	Familiyasi Ismi	II	2013	12-15	*****		
2.	***	***	2010	12-15	*****		
3.	***	***	2009	16-18	*****		
4.	***	***	2007	16-18	*****		
5.	***	***	2006	19+	*****		
6.	***	***	1999	19+	*****		

Jamoa vakili
Shifokor

